| <b>Bekdavlat Aliyev</b>                                                                                                                                               |     |
| O'zbekistonda tijorat banklari emission operatsiyalarining dolzarb masalalari .....                                                                                   | 412 |
| <b>O'ktamova Nozima Narzulla qizi</b> , kafedra dotsenti                                                                                                              |     |
| Moliyaviy barqarorligi tushunchasining konseptual mohiyati, turlari va asosiy tavsiflari.....                                                                         | 416 |
| <b>Eshquvatov Aziz Baxtiyorovich</b> , mustaqil izlanuvchi                                                                                                            |     |
| XX asr jadid ma'rifatparvarlari Abdurahmon Toshkandiy va Abdulla Avloniy axloqiy konsepsiyalaridagi umumiylik va xususiylik.....                                      | 420 |
| <b>Abrorxon Asatulloev Asatulloevich</b> , falsafa fanlari doktori (PhD)                                                                                              |     |
| Yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy va huquqiy asoslari.....                                                                                                  | 424 |
| <b>Abdurahmanova Muqaddas Toxtasinovna</b>                                                                                                                            |     |
| Стратегии привлечения иностранных инвестиций для содействия устойчивому экономическому росту в Республике Узбекистан с акцентом на инициативы зеленого развития ..... | 431 |
| <b>Нилуфар Зикируллаева Дилмуродовна</b> , аспирант                                                                                                                   |     |
| Bank tizimi barqarorligini oshirishda kredit risklarining ahamiyati va ularni kamaytirish yo'llari .....                                                              | 440 |
| <b>Xolmamatov Farhodjon Kubayevich</b> , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor                                                                      |     |
| Baholash faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari va uning huquqiy asoslari .....                                                                                     | 446 |
| <b>Bobirjon Aktamov</b> , mustaqil tadqiqotchi                                                                                                                        |     |
| Suv resurslaridan foydalanishni iqtisodiy boshqarish samaradorligini kompleks baholash uslubiyoti.....                                                                | 454 |
| <b>Axmedov Sayfullo Normatovich</b> , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi                                                                                                  |     |
| Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini boshqarishni takomillashtirish metodologiyasini ishlab chiqish.....                                             | 459 |
| <b>Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li</b>                                                                                                                            |     |



# INNOVATSION MUHITNI SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHIDA INVESTITSIYANING ZARURLIGI



**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,**  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada bugungi kunda dunyoning aksariyat mamlakatlari o'z oldiga ilmga asoslangan innovatsion iqtisodiyotga o'tish vazifasini qo'yayotgani, ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini yaratish, sotish va ulardan foydalanish borasida o'rta hamda uzoq muddatlarga mo'ljallangan strategiyalarni ishlab chiqayotgani tahlil qilingan.

Bunday strategiyalar barqaror iqtisodiy o'sishning asosiy sharti hisoblanishi, so'nggi yillarda O'zbekistonda ham ilm-fan bilan shug'ullanadigan institutlar, yetakchi ilmiy maktablar va innovatsion tadqiqotlarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani va jahon tajribasi ko'rsatganidek, jamiyat taraqqiyoti innovatsion rivojlanishdan boshqa muqobil yo'l yo'q ekanligi ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** innovatsion iqtisodiyot, ilmiy-texnikaviy faoliyat, uzoq muddatlarga mo'ljallangan strategiyalar, makroiqtisodiy siyosat, raqobatbardosh.

**Abstract:** The article analyzes the fact that today most of the countries of the world are facing the task of transitioning to a science-based innovative economy, and are developing medium- and long-term strategies for creating, selling and using the results of scientific and technical activities.

Such strategies are considered the main condition of sustainable economic growth, in recent years, great attention has been paid to the development of scientific institutes, leading scientific schools and innovative research in Uzbekistan, and as world experience shows, there is no other alternative way of social development than innovative development.

**Key words:** innovative economy, scientific and technical activity, long-term strategies, macroeconomic policy, competitive.

**Аннотация:** В статье анализируется тот факт, что сегодня большинство стран мира стоят перед задачей перехода к инновационной экономике, основанной на науке, и разрабатывают средне- и долгосрочные стратегии создания, реализации и использования результатов научных исследований. и технической деятельности.

Подобные стратегии считаются главным условием устойчивого экономического роста, в последние годы большое внимание уделяется развитию научных институтов, ведущих научных школ и инновационных исследований в Узбекистане, а также, как показал мировой опыт, развитию общества. является инновационным и утверждается, что другой альтернативы развитию не существует.

**Ключевые слова:** инновационная экономика, научно-техническая деятельность, долгосрочные стратегии, макроэкономическая политика, конкурентоспособность.

Bugungi kunda dunyoning aksariyat mamlakatlari o'z oldiga bilimga asoslangan innovatsion iqtisodiyotga o'tish vazifasini qo'ymoqda. Buning uchun ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini yaratish, sotish va ulardan foydalanish borasida o'rta hamda uzoq muddatlarga mo'ljallangan strategiyalarni ishlab chiqishdi. Bunday strategiyalar barqaror iqtisodiy o'sishning asosiy sharti hisoblanadi. Shu bois so'nggi yillarda O'zbekistonda ham ilm-fan bilan shug'ullanadigan institutlar, yetakchi ilmiy maktablar va innovatsion tadqiqotlarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Jahon tajribasi ko'rsatganidek, jamiyat taraqqiyoti innovatsion rivojlanishdan boshqa muqobil yo'l yo'q ekanligini ko'rsatmoqda.

Globallashuv jarayonlarini yanada faollashuvi o'z navbatida yangi mahsulotlar va texnologik jarayonlar xizmatlarini yaratish, joriy etish va keng tarqatish iqtisodiy o'sish, tadbirkorlik faoliyati samaradorligi va korxonalarning raqobatbardoshligini oshirishning asosiy omillariga aylanmoqda. Shu bois mamlakatimizda makroiqtisodiy siyosatining asosiy maqsadlaridan biri deb e'lon qilingan investitsion siyosatni yanada rivojlantirish orqali iqtisodiyotni modernizatsiya qilish evaziga innovatsion muhitni yaxshilash evaziga mamlakatimizning jahon innovatsion yetakchi davlatlaridagi tezlashib borayotgan texnologik farqini bartaraf etishni nazarda tutadi.



Buning uchun birinchidan, O'zbekistonni 2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish maqsad etib belgilangan<sup>1</sup>. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun milliy iqtisodiyotda transformatsiya va institutsional islohotlarni izchil davom ettirish, mamlakatda qulay investitsion va ishbilarmonlik muhitini ta'minlash hamda muvozanatlashgan pul-kredit siyosatini amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Ikkinchidan, O'zbekistonni 2030-yilga qadar innovatsion rivojlangan 50 ta mamlakatlar qatoriga olib chiqish<sup>2</sup>. Mazkur farmonga muvofiq 2030-yilga qadar mamlakatimizni rivojlangan 50 ta mamlakatlar qatoridan o'rin egallash uchun iqtisodiy rivojlanishni muhim mezon bo'lgan ilm-fan hamda innovatsiyani har tomonlama rag'batlantirib, ijtimoiy hayotda inson kapitalini yuksak qadr topishi uchun barcha imkoniyatlarni ishga solish lozimligi ko'rsatib o'tilgan. Bundan ko'rinadiki, innovatsiyalar zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas xususiyatiga aylanib bormoqda. Bu davlatlar va ularning hamjamiyatlari, shuningdek, alohida kompaniyalar uchun bir xil darajada amal qiladi. Innovatsion yo'nalish nafaqat bugungi kun uchun, balki har qanday sohadagi inson faoliyatining yaqin kelajagi uchun ham zaruratdir.

Shu nuqtayi nazardan, hozirgi kunda dunyoning aksariyat rivojlangan davlatlari o'zlarini belgilab qo'ygan innovatsion bilimga asoslangan iqtisodiyotga o'tish vazifasi va unda ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini yaratish, uzatish va ulardan foydalanish barqarorlikning asosiy shartlari hisoblanadi.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha jahon va milliy iqtisodiyotning barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Rivojlangan mamlakatlar yalpi ichki mahsulotining 70–90 foizi aynan innovatsiya faoliyatini rivojlantirish hisobiga yaratilmoqda<sup>3</sup>. Chunki dunyo bozorida yuqori texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan ilmiy hajmdor mahsulotlar ulushida salmog'i yuqori mamlakatlar o'rtasidagi raqobat tobora kuchayib bormoqda. Jumladan, dunyo bozorida ilmiy hajmdor mahsulotlarning 36 foizi AQShga, 30 foizi Yaponiyaga, 22 foizi Xitoy davlatiga to'g'ri kelmoqda<sup>4</sup>. Jahon bankining ma'lumotlariga ko'ra har million aholiga nisbatan ilmiy tadqiqotlar band bo'lgan mamlakatlar reytingida 1-o'rinda Isroil 8250 nafar, 2-o'rinda Janubiy Koreya 7113 nafar, 3-o'rinda Yaponiya 5210 nafarga to'g'ri kelmoqda<sup>5</sup>.

O'zbekistonda ham tarkibiy o'zgarishlarni izchil amalga oshirishda qulay innovatsion muhitning yaratilishi muhim ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib kelmoqda. Bu borada mamlakatimiz oldida turgan muhim masalalardan biri hozirgi iqtisodiyotning globallashuv ko'lamiga tobora kengayib borayotgan bir sharoitda har qanday konyunkturaviy o'zgarishlarga qarshi tura oladigan, ichki va tashqi bozor talablariga tezlik bilan moslasha oluvchi raqobatbardosh milliy sanoat tarmoqlarini shakllantirishimiz dolzarb ahamiyatga ega. Shu bois "O'zbekiston–2030" strategiyasida mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ilg'or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish yana bir muhim maqsadlardan biri sifatida e'tirof etilgan. Buning uchun milliy sanoatimizda ishlab chiqariladigan texnologik mahsulotlar ulushini 25 foizdan 32 foizga yetkazish, qayta ishlash sanoatida mehnat unumdorligini 2 barobar oshirish hamda yuqori daromadli mahsulot uchun zarur bo'lgan mis ishlab chiqarishni 3,5 barobar, oltin – 1,5 barobar, kumush – 3 barobar, uranni esa 3 barobarga oshirish belgilangan. Mamlakatimizda investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirish va qimmatli qog'ozlar bozorini jadal rivojlantirish uchun respublika miqyosida 250 milliard dollarlik investitsiyalarni o'zlashtirish, jumladan 110 milliard dollar xorijiy investitsiyalar va 30 milliard dollar davlat-xususiy sheriklik doirasidagi investitsiyalarni jalb qilish ko'zda tutilgan. Shu bilan birga erkin muomaladagi qimmatli qog'ozlar savdolari hajmini 8 mlrd. AQSh dollariga yetkazish hamda umumiy qiymati 150 milliard dollarlik 500 dan ziyod strategik ahamiyatiga ega bo'lgan texnologik va infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirish rejalashtirilgan. Bularning barchasi kelajakda hududlarning investitsion reytingini yuritish, har bir hududning imkoniyatlaridan kelib chiqib, uning investorlar uchun jozibadorligini yanada oshirishga zamin yaratadi.

Chunki milliy sanoatning barqaror va mutanosib rivojlanishi va jahon bozorida mustahkam o'rin egalashi hisobidan aholining turmush darajasi va farovonligini yanada oshirish olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Buning uchun, albatta, iqtisodiyotdagi innovatsion faollikni oshirishimiz zarur bo'ladi. Bunga innovatsion muhitni shakllantirish orqali erishishimiz mumkin.

Innovatsion muhit – bu mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion jarayonlarga ta'sir ko'rsatuvchi me'yoriy-huquqiy, siyosiy, iqtisodiy, moliyaviy, texnik, ijtimoiy va boshqa shart-sharoitlar majmuidir<sup>6</sup>.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF–158-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/6600413>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF–6097-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5073447>

3 <https://theworldonly.org>

4 Желткова О. В. Инновационная привлекательность предприятия как фактор технологической модернизации производства. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. –М., 2016, 24 стр.

5 <https://www.worldbank.org>

6 Rasulov N. M. O'zbekistonda qulay innovatsion muhitni shakllanishi va rivojlanishining nazariy asoslari. Стратегическое планирование – важный фактор стабильности устойчивого социально-экономического развития страны и регионов. Материалы XI Форума экономистов. -Т. 2019, 186-193 стр



Innovatsion muhit, avvalo quyidagi iqtisodiy omillar orqali belgilanadi:

- ishchi kuchi malakasi;
- ilmiy tadqiqot bilan shug'ullanayotgan xodimlar soni;
- o'rtacha ish haqi darajasi;
- mamlakatning investitsion jozibadorligi;
- ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalarni qo'llash faolligi;
- innovatsion infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi;
- iqtisodiy konyunktura holati;
- ichki bozor sig'imi;
- tovarlarni tashqi bozorda sotish imkoniyatlari;
- kredit tizimi holati, moliyaviy resurslar, soliqqa tortish darajasi;
- ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanganligi;
- xorijiy kapitalga nisbatan davlat siyosati, unga nisbatan imtiyozli shart-sharoitlarning belgilanganligi va h. k.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan buyon o'tgan 32 yil mobaynida iqtisodiyotimizda innovatsion muhitni yaratish davlatimiz iqtisodiy siyosatining markaziy masalalaridan biri bo'lib kelmoqda. Jumladan, so'nggi yillarda bu borada real sektor tarmoqlarida innovatsion jarayonlarni faollashtirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Chunonchi, yuqorida ta'kidlab o'tilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-son hamda 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son Farmonlari shular jumlasidan. Mazkur farmonlarda ilg'or xorijiy tajribalar, jahon fanining zamonaviy yutuqlari, innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalar asosida iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va ijtimoiy sohani jadal innovatsion rivojlantirishni ta'minlash vazifasi yuklatildi.

Chunki innovatsion salohiyati yuqori bo'lgan davlatlarda ilmiy hajmdor mahsulotlar ishlab chiqarish bevosita korxonalarga yuqori texnologiyalarni joriy etish, turli ilmiy tekshirish institutlari, oliy ta'lim muassasalari, yirik korxonalar hamda tajriba-konstruktorlik tashkilotlari, tajriba-konstruktorlik va kichik innovatsion markazlar tomonidan ilgari surilgan innovatsion g'oyalarni korxonalar orqali amaliyotga tatbiq etiladi. Bunda bevosita korxonalardagi mavjud innovatsion muhit katta rol o'ynaydi. Korxonalarda innovatsion g'oyalarni shakllantirish, ularni qo'llab-quvvatlash va amalga oshirishda bevosita innovatsion muhitning o'rni salmoqlidir. Korxonalardagi innovatsion g'oyalarni tijoratlashtirish uchun, albatta, korxonaning innovatsion muhiti shakllangan va innovatsion salohiyati yuqori bo'lishi lozim. Buning uchun xorij amaliyotida mazkur masala bilan bog'liq tadqiqotlarning ilmiy-nazariy talqiniga katta e'tibor qaratish, mamlakatimiz sharoitlariga mos uslubiyotlardan foydalanish talab etiladi.

Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida "innovatsion jarayonlar", "innovatsion muhiti", "innovatsion salohiyat" hamda "korxonalarning innovatsion jozibadorligi"ni baholash, unga ta'sir etadigan omillarni tahlil etish bilan bog'liq muammolar bo'yicha xorijiy iqtisodchi olimlardan Y. Shumpeter, Adam Smit, G. Mensh, K. Frimen, P. Druker, B. Santo, Sh. Tatsuno, R. Robinson, D. Saxal, M. Porter, B. Tviss, R. Kumbos, A. Xemilton, P. Uayt, E. Mensfild, J. D. Bernal, N. D. Kondratev, P. Sorokin, S. Kuznets, S. Y. Glazev va boshqalarning ilmiy izlanishlarida o'z ifodasini topgan.

O'zbekistonning milliy xususiyatlarini hisobga olgan holda innovatsion faoliyatni rivojlantirish, iqtisodiyotning tarmoq va sohalarida innovatsion muhitni shakllantirish, innovatsion salohiyatdan samarali foydalanishning nazariy va amaliy masalalari bilan respublikamizning bir qator iqtisodchi olimlari B. Abdullayev, N. Alimova, Z. Gaibnazarova, D. Kokurin, M. Maxkamova, Z. Muqumov, O. Nazarov, R. Nazarova, N. Namazova, N. Rasulov, Sh. Otajanov, Sh. Sindarov, T. Toshpulatov, G. Xamdanova, B. Xolikov va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Iqtisodiyoti taraqqiy etgan mamlakatlarda amaliyotida korxonalarning innovatsion muhitini rivojlantirish iqtisodiy rivojlanishning manbayi sifatida tan olingan. Innovatsion muhitni rivojlantirish nafaqat alohida iqtisodiy subyektning, balki butun bir tizimning ham rivojlanishini ta'minlovchi alohida asosiy o'sish manbayi hisoblanadi.

"Innovatsion muhit", "innovatsion salohiyat", "innovatsion rivojlanish" tushunchalari XX asrning 70-yillari oxiridan amaliyotga faol kirib kela boshladi. Mazkur atamalar bir qator olimlarning uslubiy, nazariy va amaliy tadqiqotlarida tahlil etildi, ma'lum bir aniqliklar kiritildi va amaliyotga qo'llash uchun taklif etildi. Biroq shu kungacha ham mazkur tushunchalarning dunyoda umum qabul qilingan yagona ta'rifi ishlab chiqilmagan. Har bir olim yoki mutaxassis o'z davlatining xususiyatlarini inobatga olgan holda ilmiy tadqiqotlarining yo'nalishi va mazmuniga qarab innovatsion rivojlanishni o'ziga xos yo'nalishda talqin etadi.

Jumladan, buyuk shotlandiyalik iqtisodchi Adam Smit o'zining 1776-yilda chop etgan "The Wealth of Nation" nomli ilmiy asarida nafaqat bozor tizimidagi talab va taklifning nisbati, balki yangi texnologiyalar yordamida korxonalarning raqobatbardoshligini yanada oshirish to'g'risida o'z qarashlarini bayon etgan<sup>7</sup>. Keyinchalik A. Smitning bu ilmiy qarashlari yanada keng va salmoqli ahamiyat kasb eta boshladi. Shuning uchun rivoj-

7 Костенко М. А. Правовые основы инновационной деятельности: Учебное пособие / Таганрог: ТТИ ЮФУ, 2012, 72 с.



langan mamlakatlarning yirik tashkilot va kompaniyalari hozirgi kunda dunyo bozorlaridagi raqobat kurashida innovatsiyalardan amaliy omil sifatida foydalanmoqdalar.

“Katta to‘lqinlar” nazariyasi orqali innovatsiyalarning fundamental asoslari shakllanishiga asos solgan rus iqtisodchisi N. D. Kondratevning tadqiqotlarini innovatsiyalarni nazariy o‘rganishga qaratilgan ilmiy izlanishlarning dastlabkilaridan biri sifatida e‘tirof etish mumkin<sup>8</sup>. Chunki u katta to‘lqinlar shakllanishida texnik o‘zgarishlarning rolini aniq ochib bermagan bo‘lsada, katta to‘lqinlarning ko‘tarilishi chog‘ida amalga oshmagan ixtirolar amaliyotda o‘z ifodasini topishini nazarda tutgan<sup>9</sup>.

Jumladan, N. D. Kondratev o‘zining “Katta to‘lqinlar” nazariyasi bo‘yicha quyidagi ilmiy yangiliklarga erishgan:

- sanoat ishlab chiqarishda almashinuv fazalari ketma-ketligining davriyligini aniqlagan;
- davrlarning ko‘pligini va omillarga sezuvchanligini isbotlagan;
- davrlarni o‘zgarish modelini ishlab chiqdi.

Keyinchalik uning ilmiy qarashlari Y. Shumpeter tomonidan rivojlantirildi. Y. Shumpeter iqtisodiyotdagi katta to‘lqinlarning paydo bo‘lishida texnik o‘zgarishlar asosiy o‘rin tutishini isbotlab berdi va quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha nazariy qarashlarni ilgari surdi<sup>10</sup>:

- iqtisodiy innovatsiyalarni sanoat bilan bog‘lagan holda o‘rgandi hamda aniq takliflar ishlab chiqdi;
- “kashfiyot” va “yangilik” atamalarini mazmunini tushuntirib berdi;
- iqtisodiyotda innovatsion o‘zgarishlar oliy ta‘lim – ilmiy tadqiqot – tadbirkor uzviyligida ro‘y beradi degan fikrni olg‘a surdi;
- global davriy inqirozdan (iqtisodiy krizis) faqatgina yangi texnologik qatlamdagi tayanch innovatsiyalarni amaliyotda qo‘llash orqaligina chiqib ketish mumkin deb ta‘kidladi.

Yana bir amerikalik iqtisodchi B. Tviss o‘z tadqiqotlarida innovatsiyalarga jarayon sifatida e‘tibor qaratib tadqiqotlar, g‘oyalarni kashfiyot va yangiliklarga aylanishining muvaffaqiyatligi innovatsion muhitning shakllanganligiga bog‘liq ekanligini ko‘rib chiqqan. Uning ta‘kidlashicha “innovatsiya” bu – jarayon bo‘lib, unda g‘oya, kashfiyot yoki tadqiqotlarning natijasi aks etadi.

Ingliz olimi Kristofer Frimen ilmiy tadqiqotlarini, asosan, “milliy innovatsion tizim” (MIT) va uni rivojlantirish bilan bog‘liq izlanishlarga qaratgan. Frimenning ta‘kidlashicha, MIT – bu “xususiy va davlat tashkilotlarini innovatsion jarayonlarni yo‘lga qo‘yishda o‘zaro bir maqsadga qaratilgan iqtisodiy faoliyat natijasi bo‘lib, ularning faoliyati yangi texnologiyalarning vujudga kelishi, import qilinishi, modifikatsiyalanishi va tarqalishiga olib keladi.

Niderlandiyalik tadqiqotchi olim Alfred Klyaynknext G. Menshning nazariy qarashlarining ko‘pgina jihatlarini tanqidiy qarshi oldi va rivojlantirdi. U G. Menshning iqtisodiyotning rivojlanishini depressiya bosqichida yangiliklarni klasterlashtirish usuli orqali amalga oshirish maqsadga muvofiqligi to‘g‘risidagi fikrlarni ilgari surgan. Uning tahlillariga ko‘ra, ishlab chiqarishga yangilik kiritish (mahsulotlar innovatsiyasi) depressiya fazasida sodir bo‘ladi, jarayonga yangiliklar kiritish (jarayonlar innovatsiyasi) esa katta to‘lqinnig o‘sish bosqichida sodir bo‘lishini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

O‘zbekistonda ham mustaqillikka erishgandan so‘ng innovatsion faoliyat bilan bog‘liq jarayonlar asta-sekin rivojlana boshlandi. Mamlakatimizda innovatsion faoliyat bilan bog‘liq dastlabki ilmiy tadqiqotlar A. A. Ro‘zmatov<sup>11</sup> va D. M. Kokurinlar<sup>12</sup> tomonidan olib borilgan.

A. Ro‘zmatov 1992–1994-yillarda O‘zbekiston Respublikasining mashinasozlik sohasini rivojlantirishda innovatsion faoliyatni iqtisodiy jihatdan rag‘batlantirish masalalariga alohida to‘xtalib o‘tgan. Mazkur yillarda mamlakatning mashinasozlik holati inqiroz holatiga kelib qolganligi uchun korxonalarning iqtisodiy va moliyaviy holatini yaxshilash maqsadida birinchi navbatda innovatsion faoliyatni jonlantirish muhim ekanligi asosli ravishda ochib berilgan. 1996-yilda esa D. M. Kokurin tomonidan O‘zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini iqtisodiy rag‘batlantirishning qator nazariy va amaliy muammolarini innovatsion sohani rivojlantirish orqali hal etish borasida bir qator takliflari ishlab chiqilgan. Jumladan, muallif sanoat ishlab chiqarishi va innovatsion sohada tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirish orqali raqobatda yutuqlarga erishish mumkinligini ta‘kidlab o‘tgan. Shu bilan birga O‘zbekistonda innovatsiya sohasida tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yaratish zarurligini ta‘kidlab o‘tgan.

Ta‘kidlash joizki, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning yakuniy natijasi sanoat korxonalarida mavjud innovatsion salohiyatni baholash, innovatsion loyihalarni ishlab chiqarish jarayoniga tatbiq etish uchun innovatsion muhitni yaxshilash lozim. Buning uchun bevosita ishlab chiqarish, fan va ta‘lim o‘zaro integratsiyasini yaxshilash zarur. Buning uchun, bizning fikrimizcha, quyidagi omillarga e‘tibor qaratish lozim:

8 Алексеев А. А. Инновационный менеджмент. Учебник. – Москва, Юрайт. 2015, 276 с.

9 Базилевич А. И. Инновационный менеджмент предприятия: учебное пособие для студентов вузов, обучающихся по специальностям экономики и управления / А. И. Базилевич; под. ред. В. Я. Горфинкеля. - М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2009, 231 с.

10 Алексеева М. Б., Ветренко П. П. Анализ инновационной деятельности. Москва, Юрайт, 2016. - С. 89-91.

11 Рўзmatov A. A. Экономическое стимулирование инновационной деятельности на предприятиях машиностроительного комплекса Республики Узбекистан: авторефер. дис... к. э. н. –Т.: Институт экономики Академии наук Рес. Уз., 1994, 28 с.

12 Кокурин Д. И. Экономическое стимулирование развития предпринимательства в промышленной и инновационной сферах Республики Узбекистан. авторефер. дис... к. э. н. –Т.: Институт экономики Академии наук Рес. Уз., 1996, 26 с.



- ta'lim;
- ilm-fan;
- inson kapitali;
- innovatsion infratuzilma;
- korxonalarning innovatsion faolligi;
- korxonalardagi innovatsion salohiyat.

Biroq yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, sanoat korxonalari innovatsion jozibadorligini oshirish, ularning faoliyatini kompleks rivojlanishini ta'minlash va innovatsion muhit jozibadorligini oshirish bo'yicha quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- korxonalarning innovatsion rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda zamonaviy innovatsion menejment va innovatsion rivojlantirishning nazariy uslubiyotlari yutuqlarini kompleks tahlil qilish va o'rganish lozim;
- korxonalarning innovatsion muhitini tavsiflovchi ko'rsatkichlardan biri sifatida innovatsion jozibadorlikni tahlil qilish va istiqbol ko'rsatkichlarini belgilash uslubiyotini ilmiy jihatdan asoslash;
- real sektor korxonalarning innovatsion jozibadorligini joriy va istiqbol ko'rsatkichlarini ma'lum bir uslubiyot orqali hisob-kitob qilish mexanizmini yaratish;
- real sektor tarmoqlarida sohalar kesimida fundamental va amaliy tadqiqotlarni tashkil etishning rivojlangan mamlakatlar tajribasini tatbiq etish hamda innovatsion loyihalarni to'liq ro'yobga chiqarish va amaliy joriy etish uchun lozim bo'ladigan shart-sharoitlarni ta'minlash;
- korxonalarda innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalar samaradorligini strategik prognoz qilish, qo'llab-quvvatlash va joriy etishni ta'minlovchi innovatsiya faoliyatini amalga oshirish uchun qulay sharoit yaratish;
- tarmoq va sohalar kesimida yuqori texnologiyalar, nou-xau va zamonaviy ishlanmalarni joriy etishni talab qiluvchi ustuvor soha va tarmoqlarni rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlarini qabul qilish;
- korxonalarda ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil qilish hamda innovatsion g'oyalar va ishlanmalarni joriy etishda ilmiy-tadqiqot institutlari, loyiha-konstruktorlik tashkilotlari hamda oliy ta'lim muassasalari bilan uzviy aloqa qiluvchi infratuzilmani rivojlantirish;
- korxonalarga innovatsion loyiha va g'oyalarni tijoratlashuvini yo'lga qo'yish maqsadida xususiy va nodavlat investorlarni jalb etish.

Mazkur chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida milliy korxonalarda innovatsion muhitni sezilarli darajada ortishiga olib keladi. Bu esa korxonalarda innovatsiya jarayonlarini yanada faollashuviga, innovatsion muhitni yaxshilanishi va korxonalarning investitsion jozibadorligi bilan bog'liq muammolarni hal etilishiga olib keladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, raqobat kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda sanoat korxonalarida o'z faoliyatlarida doimo yangi innovatsiyalarni qo'llamasdan, salohiyatli investorlar bilan hamkorlikni yaxshi yo'lga qo'ymasdan jahon bozorlariga yangi mahsulot yoki xizmatlarni kiritishlari mushkul. Bunda korporativ tuzilmalarning boshqaruv faoliyatiga innovatsion menejment usul va texnologiyalarini tatbiq etish, amaldagi boshqaruv usullarini muntazam ravishda takomillashtirib borish zarur.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://lex.uz/uz/docs/6600413> – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF–158-son Farmoni.
2. <https://lex.uz/docs/5073447> – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF–6097-son Farmoni.
3. <https://theworldonly.org>.
4. Желткова О. В. Инновационная привлекательность предприятия как фактор технологической модернизации производства. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – М., 2016. – 24 стр.
5. <https://www.worldbank.org> – Jahon banki ma'lumotlari.
6. Костенко М. А. Правовые основы инновационной деятельности: Учебное пособие. / . – Таганрог: ТТИ ЮФУ, 2012. – 72 с.
7. Rasulov N. M. O'zbekistonda qulay innovatsion muhitni shakllanishi va rivojlanishining nazariy asoslari. Strategicheskoe planirovaniye – vazhnyy faktor stabilnosti ustoychivogo sotsialno-ekonomicheskogo razvitiya strany i regionov. Materialy XI Forumy ekonomistov. – T., 2019. – 186-193 str.
8. Алексеев А. А. Инновационный менеджмент. Учебник. – Москва, Юрайт, 2015. – 276 стр.
9. Костенко М. А. Правовые основы инновационной деятельности: Учебное пособие. / . Таганрог: ТТИ ЮФУ, 2012. – 72 с.
10. Алексеев А. А. Инновационный менеджмент. Учебник. – Москва, Юрайт, 2015. – 276 стр.
11. Алексеева М. Б., Ветренко П. П. Анализ инновационной деятельности. – Москва, Юрайт, 2016. – С. 89–91.

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2023. № 9**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.



"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.